



## 2021- yil yanvar-noyabr oylarida Toshkent viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent viloyatida jami **7940,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2020- yilning mos davriga nisbatan **111,6 %**ni tashkil etdi.




### 2021- yil yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi %da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3,8 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 285 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili, bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **103,6 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **51,8 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **120,5 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **7,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **111,8 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **40,2 %**) o'sishidir.




## Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da
	2020- yil 1- dekabr	2021- yil 1- dekabr	
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>3540</b>	<b>3824</b>	<b>108,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	165	197	119,4
Olmaliq	210	209	99,5
Angren	275	271	98,5
Bekobod	172	181	105,2
Ohangaron	113	122	108,0
Chirchiq	295	319	108,1
Yangiyo'l	85	87	102,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	95	91	95,8
Ohangaron	76	88	115,8
Bekobod	104	113	108,7
Bo'stonliq	130	144	110,8
Bo'ka	109	124	113,8
Quyi Chirchiq	88	91	103,4
Zangiota	240	256	106,7
Yuqori Chirchiq	204	220	107,8
Qibray	344	399	116,0
Parkent	103	111	107,8
Piskent	80	82	102,5
O'rta Chirchiq	224	220	98,2
Chinoz	111	133	119,8
Yangiyo'l	168	189	112,5
Toshkent	149	177	118,8



## Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (ulushi %da)




**Ma'lumot uchun:** Viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qibray tumanida (10,4 %), Chirchiq (8,3 %) va Angren shaharlarida (7,1 %) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **7940,5** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **111,6 %** oʻsish koʻrsatkichiga erishildi. Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **1,0 %** punktga kamaydi, **20,9 %**ni tashkil etdi.




## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da



**Maʼlumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Olmaliq shaxri (jami qurilish ishlari hajmining **279,3 %**i yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan **734,9%**), Qibray (jami qurilish ishlari hajmining **12,5 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **108,6 %**) va Yuqori Chirchiq (jami qurilish ishlari hajmining **5,0 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **100,7 %**) tumanlariga toʻgʻri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- 2020- yil yanvar-noyabr
- 2021- yil yanvar-noyabr

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **52,2 %** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-noyabr oyi ko'rsatkichiga nisbatan **2,8 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **104,8 %**ni tashkil etgan holda **3431,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **26,9 %**ni tashkil etdi yoki **2136,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **133,7 %**ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **1128,2** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarildi yoki 2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan oʻsish surʼati **9,8** marta oshdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **6812,3** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati **97,5** %ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **14,2** % va **85,8** %ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, %da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



## Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2021- yil yanvar-noyabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi, %da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>7940,5</b>	<b>111,6</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	361,7	100,6	4,6
Olmaliq	1120,3	279,3	14,1
Angren	276,1	105,5	3,5
Bekobod	211,0	100,2	2,7
Ohangaron	81,0	101,5	1,0
Chirchiq	394,5	100,7	5,0
Yangiyo'l	176,5	97,1	2,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	144,1	102,0	1,8
Ohangaron	279,9	102,0	3,5
Bekobod	101,6	111,4	1,3
Bo'stonliq	271,1	85,6	3,4
Bo'ka	202,9	102,1	2,6
Quyichirchiq	335,7	106,8	4,2
Zangiota	683,7	101,7	8,6
Yuqori Chirchiq	565,1	104,9	7,1
Qibray	991,8	108,6	12,5
Parkent	278,8	102,8	3,5
Piskent	284,6	100,6	3,6
O'rta Chirchiq	370,1	90,0	4,7
Chinoz	190,2	100,5	2,4
Yangiyo'l	246,2	105,1	3,1
Toshkent	373,6	100,4	4,6





## Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2021- yil yanvar-noyabr oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

1 Olmaliq sh.  
1120,3

2

Qibray t.  
991,8

3 Zangiota t.  
683,7



### Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

1 Ohangaron sh.  
81,0

2

Bekobod t.  
101,6

3 Oqqo'rg'on t.  
144,1



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi  
Aloqa telefoni: (71) 202-86-70